

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILI DARSLARIDA  
INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHINING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.**

**I.T. Dehqonov, FarDU, nemis va fransuz  
tillari kafedrasi katta o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Maqolada chet tili darslarini boshlang'ich sinflarda tashkil qilish, interaktiv metodlardan foydalanish, kichik guruhlarda ishlashda psixologik qulay sharoit va samarali vaziyatlar yaratish to'g'risida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** interaktiv metod, kichik guruhlarda ishlash, o'z-o'zini baholash, interaktiv o'yinlar, hamkorlikda ishlash, savol-javob.*

***Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы организации уроков иностранного языка в начальных классах с использованием интерактивных методов, создания психологически благоприятных условий и эффективных ситуаций при работе в малых группах.*

***Ключевые слова:** интерактивный метод, работа в малых группах, самооценка, интерактивные игры, совместная работа, вопросы и ответы.*

***Annotation:** The article discusses the organization of foreign language classes in primary classes, the use of interactive methods, the creation of psychologically favorable conditions and effective situations when working in small groups.*

***Key words:** interactive method, work in small groups, self-assessment, interactive games, cooperative work, question and answer.*

Ishchan va muloqotga kirishuvchi guruhniga tashkil qilish chet tili o'rgatishning dastlabki davrida juda muhimdir. Kichik guruhlarda ishni tashkil qilishdan oldin, o'quvchilarni avval bu yangi ish turiga puxtalik bilan tayyorlash kerak bo'ladi. O'quvchilarni tayyorlash davri quyidagicha bo'ladi:

- yangi texnologiya bo'yicha o'qitishga o'quvchilarning psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash;

- o‘quvchilar uchun psixologik qulay sharoit va samarali vaziyatlar yaratish.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi bo‘lib, “istak va harakatga keltirish”ni, o‘zini faollashtirishni, o‘zi harakat qilishini, o‘zini malakasini oshirishini, ya’ni biz umid qilgandek bolaning rivoshlanishini nazarda tutadi. Agar bola o‘z-o‘zini baholashning past darajasiga ega bo‘lsa, unga xurmat va mehr ko‘rsatilishi, uni tushunishlari va boshqalar tomoni (o‘qituvchilar, sinfdoshlari va boshqalar) dan qabul qilinish ehtiyojidan qoniqmasa, buni amalga oshirish qiyin bo‘ladi. Bolaning o‘zini ijobiy baholashi va o‘z qadr-qimmatini xis qilishiga bo‘lgan e’tibor – maktablarning o‘quvchiga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklardan biridir. Inteaktiv o‘yinlarni tashkil qilish orqali bolalarga boshqalar bilan birga bo‘lishni his qilishga yordam berish, aniq fikrlashga o‘rgatish, tadqiq qilish va tahlil qilishni, mustaqil va guruhiy qaror qabul qilishni, anglashni rivojlantirish va boshqalarga o‘z fikrlarini bemalol bayon qilishni, hamda kichik guruhlarda ishlashda ularga uchun kerak bo‘ladigan hislatlarni shakllantirish, o‘z qo‘rquv va qattiq ruhiy hayajonlarini boshqarishni o‘rgatish. Nemis psixologi K. Fopelning ta’kidlashicha, “yuqorida keltirilgan maqsadlar, birinchi navbatda ta’lim beriladigan joy sifatida qabul qilinadigan maktab uchun o‘ta og‘irdek tuyulishi mumkin. Ta’lim berish bilan bir qatorda maktabning vazifasi bolalarni to‘g‘ri ijtimoiylashuvga va mustaqil hayotga tayyorlashdir”. “Bir bolani ikkinchi bolaga, bir guruwni ikkinchi guruhga solishtiradigan joyda yutuq vaziyatlari paydo bo‘lmaydi, ya’ni kamsitilish bo‘lib, shaxs rivojlanishi bir xil bo‘lmaydi, bunday kamsitilish holatida ba’zi bolalar yutqazadilar, go‘yoki boshqa bolalarga qaraganda rivojlanishdan orqada qoladilar, demak ular o‘z kuchlariga ishonishdek ajoyib xissiyotdan va shaxsiy yutuqdan mahrum bo‘ladilar”. Yutuq – bu o‘qishga, mehnatga, o‘ziga, faol ishga qiziqtiradigan ijobiy munosabat garovidir.

Ammo har bir o‘quvchini har tomonlama faoliyatga qiziqtirish zarur. Bir o‘quvchiga bir necha dars davomida faqat bir xil vazifani yuklamaslik kerak. Teng sheriklik munosabati darajasidagi muloqot kommunikativ vazifalarni

mustaqil hal qilishda o‘zaro bilimlar, malaka va ko‘nikmalar almashinuviga yordam beradi. O‘quvchilar muloqoti guruh ichida va guruhlararo iloji boricha chet tilida amalga oshirilishi uchun o‘quvchilarnin kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash qadamlari uning o‘ziga xosligi bilan tanishtirish va albatta o‘quvchilarni chet tilida hamkorlikda harakat qilishga tayyorlash, nutqiy muloqotning o‘ziga xosligi bilan tanishtirish zarurdir. Quyi sinflarda kichik guruhlardagi ishni samarali o‘tishi uchun o‘qituvchi ish boshlashdan oldin “Kichik guruhlarda ishlash qoidalari”ni har bir o‘quvchiga kichik qog‘ozchalarda berishi yoki katta qog‘oz (vatman) ga yozib, sinf yozuv taxtasiga osib qo‘yishi mumkin.

Quyi sinflarda hamkorlikdagi ishni tashkil qilish uchun kichik guruhlarda o‘quvchilarning o‘zaro harakatlarini psixologik o‘ziga xosligini hisobga oligan xolda maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Shu munosabat bilan tayyorgarlik davri yangi texnologiyalar asosidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatini o‘quvchilar tomonidan anglashlari, hamkorlikda va sherikli ishlashga qiziqish hosil bo‘lishi, bolalarga psixologik qulay muhit yaratish katta ahamiyatga ega.

Sinf kichik guruhlarda ishlaydigan birinchi mashg‘ulot xal qiluvchi mashg‘ulot hisoblanadi. U keyinchalik guruhli ishlarga yo‘nalish beradi. Shuning uchun sinfni birinchi marotaba kichik guruhlarga taqsimlanayotganda quyidagi shartlarga rioya qilish juda muhimdir.

Birinchi marotaba tashkil qilinayotgan kichik guruh uchun:

- O‘qituvchi kichik guruh tarkibini o‘zi belgilaydi.
- Eng faol yoki boshqa o‘quvchilar haqida o‘ylab ko‘radi.
- Eng zehnli yoki juda qobiliyatli o‘quvchilardan tanlab har bir guruhga kiritadi.
- Zehni o‘tkir bo‘lmagan o‘quvchilarni ham tanlab, har bir guruhga kiritadi.
- Guruhni 4-6 ishtirokchi bilan (nazaringizda bir-biriga mutanosib) to‘ldiradi.
- Guruhlarda ish taqsimoti (yozuvchi, vaqtga qarab boruvchi va taqdimotchi) to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishiga e’tibor beradi.
- Guruhning har bir a’zosi bir-birlariga yuzma-yuz o‘tiradi.

- Ish paytida doimo har bir guruh atrofida yuradi. Chunki savollarga javob berishi mumkin. Hamma guruqlar ishlarini yakunlagandan so‘ng, guruqlar ishning taqdimoti eshitiladi. Taqdimot uchun ham hamma guruhlarga bir xil vaqt beriladi. Muhokama oxirida o‘qituvchi o‘z kuzatuvlarini, ayniqsa har bir guruhdagi yaxshi g‘oyaga e’tiborni qaratadi, gapirib beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar asosida guruh shakllanishi qo‘yilgan vazifani xal qilishda o‘zaro tahlimiy harakatning samarali bo‘lishiga olib keladi.

### **Adabiyotlar:**

1. “Le français, c'est super!” (авторы Кулигина А.С. и Кирьянова М.Г.).
2. Алексеева И.В. Ситуативные картинки на уроках английского языка. Иностранные языки в школе. – 2001. - №6. – С. 29-31.
3. I.T. Dehqonov (2023). Fransuz etiket qoidalari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. O‘zbekiston. 17(3), 154-158. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4250>
4. I.T. Dehqonov (2023). Национально-культурный этикет. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. O‘zbekiston. 17(3), 159-165. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4250>
5. Teshayevich, D. I. (2023). Le problème de la correction du discours oral des écoliers au stade intermédiaire de l'éducation. Finland fars International Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1075-1081.
6. Dehqonov,I.T. (2023). Analyse linguistique et psychologique du discours écrit au secondaire, International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers, 11(5), 2333-2340.